

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№5

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
58 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari	12
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi	18
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish.....	23
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
Kichik biznesni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari	31
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	35
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Prospects for improving the efficiency of deposit operations in commercial banks	42
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mohiyati va ahamiyati.....	51
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	



BANK TIZIMIDA MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR MOHIYATI VA AHAMIYATI



Xodjimamedov Akmal Ashurovich

PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Email: khodjimamedov@rambler.ru

ORCID: 0000-0002-0876-6671

Umedov Abdullo Umedovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Bank tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi global moliyaviy tizimga sezilarli ta'sir ko'rsatib, innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning jadal rivojlanishiga zamin yaratdi. Ushbu maqola rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli moliyaviy texnologiyalarning bank tizimlariga ta'sirini tahlil qiladi. Unda amaliy tadqiqotlarga asoslangan holda mobil banking, blokcheyn texnologiyasi va robo-maslahatchilarning dunyo bo'ylab turli banklar tomonidan qo'llanilishi, shuningdek, ushbu innovatsiyalar bilan bog'liq foyda va xavf omillari keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: bank, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, FinTech, moliyaviy innovatsiyalar, mobil banking, onlayn banking.

Abstract: The introduction of digital technologies into the banking system has had a significant impact on the global banking system and has led to the development of innovative financial products and services. This article provides an overview of the impact of digital financial technologies on the banking systems of developed and developing countries. The article examines the use of mobile banking, blockchain technology and robo-advisors by various banks around the world using case studies, as well as the benefits and risks associated with each of these innovations.

Keywords: banking, innovation, digital technologies, FinTech, financial innovations, mobile banking, online banking.

Аннотация: Внедрение цифровых технологий в банковскую систему оказало существенное влияние на мировую банковскую систему и привело к развитию инновационных финансовых продуктов и услуг. В статье представлен обзор влияния цифровых финансовых технологий на банковские системы развитых и развивающихся стран. В статье рассматривается использование мобильного банкинга, технологии блокчейн и роботов-консультантов различными банками по всему миру с использованием тематических исследований, а также преимущества и риски, связанные с каждым из этих нововведений.

Ключевые слова: банковское дело, инновации, цифровые технологии, FinTech, финансовые инновации, мобильный банкинг, онлайн-банкинг.

KIRISH

Iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy texnologiyalar samaradorlikni oshirish va moliyaviy xizmatlardan keng foydalanishga olib kelayotgan bo'lsa-da, ular ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari kabi muhim xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish rivojlanayotgan mamlakatlarning global mintaqalararo bank sektorida raqobatbardoshligini saqlab qolishi uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunga qulay huquqiy-me'yoriy baza yaratish, infratuzilmaga sarmoya kiritish va raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali erishish mumkin.

Jahonda so'nggi-yillarda moliyaviy innovatsiyalarning bank tizimiga ta'siri-yildan-yilga ortib bormoqda. Moliyaviy innovatsiyalar – bozor ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangi moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni yaratish jarayoni bo'lib, ular bir tomondan samaradorlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi, boshqa tomondan esa bank tizimi uchun yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada moliyaviy innovatsiyalarning bank tizimiga ta'siri, ular keltirib chiqaradigan muammolar va mumkin bo'lgan yechimlar ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar bank tizimida inqilobiy o'zgarishlar yasab, banklarning ishlash uslubi, mijozlar bilan o'zaro munosabatlari va banklar o'rtasidagi raqobatning shakllanish jarayonini tubdan o'zgartirdi. Onlayn banking, mobil to'lovlar va raqamli valyutalar kabi yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar joriy etilishi banklarga mijozlar bazasini kengaytirish va foydani oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bundan tashqari, texnologik o'zgarishlarning jadal sur'ati banklarga risklarni samarali boshqarish, operatsiyalarni optimallashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beruvchi ilg'or tahliliy vositalar va algoritmlarni ishlab chiqishga zamin yaratmoqda.

Bank tizimiga moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy omillaridan biri bu – mijozlarning tez, qulay va moslashtirilgan bank xizmatlariga bo'lgan talabining ortib borayotganidir. Smartfonlar va boshqa mobil qurilmalarning keng tarqalishi natijasida mijozlar bank ma'lumotlariga istalgan joyda va istalgan vaqtda kirish imkoniyatiga ega bo'lishni kutishmoqda. Mijozlarning ehtiyojlarini qondira olmaydigan banklar esa bozor ulushini moslashuvchan va innovatsion raqobatchilarga boy berish xavfiga duch kelmoqda.

Bu esa raqamli innovatsiyalar va kraudfanding kabi yangi biznes modellarini ishlab chiqishni zaruratga aylantirmoqda. Ushbu modellar jismoniy shaxslar va korxonalarga an'anaviy banklar orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri investorlardan moliyalashtirish imkonini berib, kreditlashning klassik shakllarini tubdan o'zgartirmoqda.

Shuningdek, moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar moliyaviy barqarorlik va umuman mamlakat iqtisodiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega. Bir tomondan, ular ilgari bank xizmatlaridan foydalana olmagan ijtimoiy guruhlarni – masalan, banksiz yoki yetarli darajada bank xizmatlaridan foydalana olmayotgan shaxslarni – moliyaviy tizimga jalb qilish orqali moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi. Boshqa tomondan esa, ular kiberxavfsizlik tahdidlari, maxfiylik buzilishi va texnologik tizimlarning nosozligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy inqiroz xavfini ham orttiradi.

Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning bank tizimiga ta'sirini institutsional nuqtayi nazardan chuqur o'rganish, ushbu texnologiyalarga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning banklarning faoliyati va samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qilish, shuningdek, moliyaviy barqarorlik va tartibga solish siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini baholash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning bank tizimiga institutsional nuqtayi nazardan qanday ta'sir ko'rsatishi masalalari xorijiy iqtisodchi olimlar – Bart, Lin va Songning [1] ishlari, shuningdek, Klassens, Glesner va Klingebiel tomonidan texnologik o'zgarishlarning bank sohasiga ta'siri [2] va Böhme hamda Oskarssonning [3] raqamli valyutalarni tartibga solish muammolari bo'yicha tadqiqotlarida tahlil qilingan. Ushbu ilmiy ishlarda moliyaviy innovatsiyalar



va raqamli texnologiyalarning bank tizimidagi institutlarga, ularning strukturasiga va siyosatlariga ko'rsatayotgan ta'siri yuzasidan muhim nazariy va amaliy xulosalar ilgari surilgan.

Iqtisodchi olim Shmukler moliyaviy innovatsiyalarning ta'rifini, tarixiy shakllanish jarayonini va moliyaviy tizimga ta'sirini atroflicha o'rganib chiqqan. Srinivasan esa texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq imkoniyatlar va muammolarni tahlil qilgan holda, moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning strategik rolini alohida ta'kidlagan [4]. Böhme va hamkorlari moliyaviy innovatsiyalarning turli shakllarini chuqurroq tahlil qilish uchun ularni turkumlashtirish zarurligini ta'kidlab, innovatsiyalarni tasniflashga oid ilmiy yondashuvni taklif etgan [5].

Shu bilan birga, moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning bank tizimidagi o'rni tobora ortib borayotgan bir davrda hamon yetarlicha o'rganilmagan muhim savollar va murakkab masalalar mavjud. Masalan, Bitcoin kabi raqamli valyutalarning ayirboshlash va qiymatni saqlash vositasi sifatida an'anaviy valyutalar o'rnini qay darajada egallashi mumkinligi hamda ularning moliya tizimi barqarorligiga tahdidi mavjudmi yoki yo'qligi haqidagi masalalar hozirgi kungacha iqtisodchi olimlar o'rtasida keskin bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, ushbu yangi texnologiyalar uchun maqbul me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish, ayniqsa markaziy banklar, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF) va Moliyaviy barqarorlik kengashi kabi xalqaro moliyaviy institutlarning roli bilan bog'liq masalalar ilmiy tadqiqotlarni talab etmoqda.

Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mavzusiga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, hali to'liq yoritilmagan muhim yo'nalishlar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishda madaniy me'yorlarning ta'siri, texnologiyalar tarqalishidagi tarmoq effektlarining o'rni, shuningdek, ularning moliyaviy inklyuzivlikka ko'rsatayotgan bevosita va bilvosita ta'siri kabi jihatlar hanuz yetarlicha tahlil qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning bank tizimiga ta'sirini institutsional nuqtayi nazardan o'rganish uchun foydalanilgan ma'lumotlar manbalari, tadqiqot usullari va tahliliy yondashuvlar tasvirlangan. Tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar manbalari sifatida turli hisobotlar – xususan, tartibga soluvchi organlar hisobotlari, markaziy banklar hisobotlari hamda sanoat tadqiqotlari asosida olingan ochiq ommaviy ma'lumotlar ishlatilgan. Bundan tashqari, ilmiy jurnallar, monografiyalar va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalar kabi ikkilamchi manbalardan ham ma'lumotlar to'plangan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlardan, jumladan, adabiyotlarni tahlil qilish va holat tahlili kabi metodlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirish bank tizimi uchun hal qiluvchi omil bo'lib, banklarga xizmatlar spektrini kengaytirish, o'z takliflarini diversifikatsiya qilish va bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslashish imkonini beradi. Bu esa banklarning raqobatbardoshligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy innovatsiyalar – bu samaradorlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish maqsadida yangi moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarni yaratish, shuningdek, mavjudlarini takomillashtirishni nazarda tutadi [6]. Ular sekyuritizatsiya, derivativlar va tuzilgan moliyaviy vositalar kabi shakllarda ifodalanadi.

Bank tizimidagi moliyaviy innovatsiyalarning tarixi o'rta asrlarda italyan savdogar-bankirlari tomonidan veksellar ixtiro qilinishi bilan boshlangan. Shundan beri ushbu innovatsiyalar texnologik taraqqiyot, tartibga solish muhitining o'zgarishi va iste'molchilar talabining o'sishi ta'sirida doimiy rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda moliyaviy innovatsiyalar raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular banklarning ichki faoliyati va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarini tubdan o'zgartirmoqda.


Moliyaviy innovatsiyalarni uch asosiy turga ajratish mumkin: mahsulot innovatsiyalari, jarayon innovatsiyalari va biznes modeli innovatsiyalari. Mahsulot innovatsiyalariga kredit kartalari, onlayn banking va mobil to'lovlar kabi yangi xizmatlar kiradi. Jarayon innovatsiyalari esa kreditni rasmiylashtirish, risklarni baholash va xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligini oshirishga

qaratilgan. Biznes modeli innovatsiyasi esa banklarning strategik va operatsion modelini qayta ko'rib chiqish orqali barqaror raqobat ustunligiga erishishni maqsad qiladi.

Moliyaviy innovatsiyalarning bank tizimiga ta'siri ko'p qirrali. Bir tomondan, ular samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foyda olish imkoniyatlarini yaratadi. Boshqa tomondan esa, ayniqsa yangi moliyaviy mahsulotlar yetarlicha tushunilmagan yoki tartibga solinmagan holatlarda, ular moliyaviy xavflarni oshirishi mumkin. Bu holat 2008-yilgi global moliyaviy inqirozda yaqqol ko'zga tashlangan bo'lib, ushbu inqiroz murakkab moliyaviy vositalarning haddan tashqari keng tarqalishi bilan izohlanadi.

Moliyaviy innovatsiyalarning bank tizimidagi ijobiy jihatlaridan biri – moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishidir. Masalan, mobil banking millionlab odamlarga ilgari mavjud bo'lmagan xizmatlardan foydalanish imkonini berdi. Raqamli to'lovlar esa tranzaksiyalarni tezroq, qulayroq va arzonroq amalga oshirishga xizmat qilib, naqd pul va cheklarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirdi.

McKinsey hisobotiga ko'ra, raqamli inqilob butun dunyo bo'ylab chakana bank sektorining ko'rinishini tubdan o'zgartirdi. 2014–2021-yillar oralig'ida onlayn banking orqali olinadigan daromadlar-yillik 6 foizga, raqamli savdo hajmi esa-yillik 10 foizga o'sgan [7]. PwC tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, mobil bankingdan foydalanish global miqyosda 46 foizga oshgan. Shuningdek, foydalanuvchilarning 82 foizi haftasiga kamida bir marta o'z hisoblariga kiradi. Shu so'rovda raqamli bank xizmatlari mijozlar qoniqishini 13 foizga oshirgani va mijozlarning xizmatdan voz kechish ehtimolini 15 foizga kamaytirgani qayd etilgan [8].



1-rasm. 2020-yildan boshlab butun dunyo bo'ylab moliyaviy xizmatlar sohasida sun'iy intellektidan foydalanish holatlari¹

Moliyaviy texnologiyalar (fintech) va raqamli yechimlardan foydalanish banklarga o'z faoliyat samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini berdi. Masalan, robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA) va sun'iy intellekt (AI)dan foydalanish banklarga muntazam operatsion jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon yaratdi, bu esa ayrim hollarda xarajatlarni 80 foizgacha tejash imkonini berdi [8].

Moliyaviy xizmatlar sohasida o'tkazilgan so'rovnomalarda qatnashgan respondentlarning aksariyati sun'iy intellektning eng muhim funksiyalaridan biri firibgarlikni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Sun'iy intellekt nazorat ostidagi va nazoratsiz o'rganish algoritmlarini birlashtirgan holda mijozlarning xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa moliyaviy tashkilotlarga ruxsatsiz faoliyatni tezroq aniqlash va oldini olishda yordam beradi.

McKinsey hisobotiga ko'ra, 2020-yilda global fintech investitsiyalari 105 milliard dollarga yetgan bo'lib, bu avvalgi-yilga nisbatan 10 foizga ko'p. Shu bilan birga, COVID–19 pandemiyasi natijasida raqamli texnologiyalarni qabul qilish darajasi 3–4-yilga tezlashgan, mijozlar bilan raqamli aloqalar 5 foizga va yangi raqamli foydalanuvchilar 20 foizga oshgan.

1 Manba: MIT Technology Review Insights; Genesys; Philips; Amazon



Moliyaviy innovatsiyalar yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining shakllanishiga ham olib keldi. Xususan, so'nggi-yillarda mobil bankingdan foydalanish darajasi keskin oshdi. AQSH Federal zaxira tizimi tadqiqotiga ko'ra, mobil bankingdan foydalanuvchi katta yoshdagi amerikaliklar ulushi 2015-yilda 43 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 63 foizga yetgan [9]. Peer-to-peer (P2P) kreditlash platformalari esa an'anaviy kreditlash modelini tubdan o'zgartirib yubordi. Masalan, 2020-yilda AQSHda P2P platformalari 22 milliard dollardan ortiq miqdorda onlayn kredit ajratgan [10].

Biroq, moliyaviy innovatsiyalar bank sohasi uchun muayyan xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Moliyaviy barqarorlik kengashi hisobotiga ko'ra, fintech bilan bog'liq asosiy xatarlarga operatsion risklar, kiber xavflar, ma'lumotlar maxfiyligiga tahdidlar va tartibga solishdagi noaniqliklar kiradi. Masalan, 2020-yilda moliya sektorida 2935 ta ma'lumotlar buzilishi holati qayd etilgan, buning natijasida 140 milliondan ortiq mijozning shaxsiy ma'lumotlari o'g'irlangan [11].

Bundan tashqari, moliyaviy innovatsiyalar raqobatning kuchayishi va bozorning parchalanishiga olib kelishi mumkin. Bu holat kichik banklarning yirik moliyaviy institutlar bilan raqobatlashishini murakkablashtiradi va ularni bozordan siqib chiqarish xavfini oshiradi. Shu bilan birga, an'anaviy banklar fintech kompaniyalari kabi bank bo'lmagan moliyaviy vositachilar bilan raqobatga duch kelmoqda. Ushbu vositachilar ko'pincha innovatsion, arzon va mijozlar uchun qulay moliyaviy xizmatlarni taklif qilmoqda.

Jahon banki hisobotiga ko'ra, fintech kam ta'minlangan aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishda muhim rol o'ynagan. 2014–2017-yillar oralig'ida Afrikaning Sahroi Kabir mintaqasida bank hisobiga ega bo'lgan yoshi kattalar ulushi mobil to'lov xizmatlari orqali 34 foizdan 43 foizgacha oshgan [12].

Rivojlangan mamlakatlarda neobanklar va boshqa fintech startaplarning kuchayishi raqobatni yanada keskinlashtirgan. Bu esa bank mahsulotlari va xizmatlarining sifati va mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchanligini oshirishga olib kelgan.

Raqamli banking mijozlar uchun bank xizmatlarini yanada qulaylashtirgan bo'lsa-da, u bilan birga operatsion xavflar, kiberxavfsizlik muammolari, ma'lumotlar maxfiyligi tahdidlari va tartibga solishdagi murakkabliklar kabi xavf omillarini ham o'z ichiga oladi. Shu boisdan, banklar uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsiyalarni joriy etish bilan birga risklarni boshqarish o'rtasida muvozanatni ta'minlashlari zarur.

Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalarni tadqiq qilish murakkab va qiyin jarayon hisoblanadi, chunki bu yo'nalishdagi tezkor o'zgarishlar va murakkab omillar natijasida aniq ta'sirni o'lchash mushkul. Moliyaviy innovatsiyalarning bank faoliyatiga ta'sirini makroiqtisodiy muhit, mijoz xatti-harakatlari va boshqa tashqi omillardan ajratib baholash qiyinchilik tug'diradi. Shunga qaramay, bu sohadagi tadqiqotlar bank tizimi dinamikasini chuqurroq anglash, barqaror o'sish va raqobatbardoshlikka erishish strategiyalarini shakllantirish uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy innovatsiyalar bank sektorini shakllantirishda, banklar faoliyatini modernizatsiya qilishda va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtirishda muhim rol o'ynadi. Mobil banking, blokcheyn texnologiyalari va robo-maslahatchilar kabi raqamli texnologiyalarning yuksalishi moliya institutlari uchun mijozlarga yanada qulay va moslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish, ichki jarayonlarni optimallashtirish hamda operatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini yaratmoqda.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo bo'ylab moliyaviy institutlar ushbu texnologiyalardan turli darajada va uslubda foydalanmoqda. Masalan, BBVA bankining Ispaniyada an'anaviy bank modelini raqamli asosda o'zgartirishi yoki Wealthfront kompaniyasining AQSHda robo-maslahatchilar orqali xizmat ko'rsatishi ushbu innovatsiyalarning samaradorligini amalda isbotlab bermoqda.

Shu bilan birga, moliyaviy innovatsiyalar bilan bog'liq xavf-xatarlarni – xususan, kiberxavfsizlik tahdidlari va moliyaviy istisno (exclusion)ning yangi shakllarini – chuqur tahlil qilish zarur. Banklar va tartibga soluvchi tashkilotlar ushbu risklarni oldindan aniqlash va boshqarish orqali moliyaviy innovatsiyalarning ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirishi va salbiy oqibatlarini minimallashtirishi lozim.




Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar moliyaviy innovatsiyalar bank sektorining kelajagini shakllantirishda asosiy o'rin egallashda davom etishini ko'rsatmoqda [13]. Moliyaviy institutlarning bu o'zgarishlarga moslasha olish qobiliyati va yangi texnologiyalarni tezkor o'zlashtirish salohiyati ularning kelgusi muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Innovatsiyalarni joriy etish va u bilan bog'liq risklarni samarali boshqarish orqali banklar nafaqat mijozlar uchun xizmatlar sifatini yaxshilaydi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish orqali butun moliya sohasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu o'zgarishlar strategik imkoniyatdir. Ular global mintaqalararo bank bozorlarida raqobatbardosh ustunlikka erishish maqsadida an'anaviy bank tizimlarini chetlab o'tib, raqamli moliyaviy texnologiyalarni jadal sur'atda joriy etish salohiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. J. R. Barth, C. Lin, F. M. Song, Journal of Financial Economic Policy, 10, 86 (2018).
2. S. Claessens, T. Glaessner, D. Klingebiel, World Bank Publications (2002).
3. R. Böhme, K. Oskarsson, Journal of Financial Regulation and Compliance, 22, 305 (2014).
4. R. Srinivasan, Journal of Financial Services Research, 57, 175 (2020).
5. R. Böhme, N. Christin, B. Edelman, & T. Moore, Journal of Economic Perspectives, 29, 213 (2015).
6. S. L. Schmukler, Journal of International Money and Finance, 91, 19 (2019).
7. McKinsey & Company, Global banking annual review 2021: The great acceleration (2021). <https://www.mckinsey.com/>.
8. PwC. Global mobile banking report 2020: Accelerating innovation (2020). <https://www.pwc.com/>
9. Accenture. Banking Technology Vision 2019 (2019). <https://www.accenture.com/>
10. Federal Reserve. Consumers and mobile financial services 2019 (2019). <https://www.federalreserve.gov>
11. Statista. Peer-to-peer lending - statistics & facts (2022). <https://www.statista.com/>.
12. Financial Stability Board. FinTech and market structure in financial services: Market developments and potential financial stability implications (2021). <https://www.fsb.org/>.
13. Ходжимамедов А. Банк тизими мисолида иқтисодиётни рақамлаштириш масалалари: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a10 //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – T. 23. – №. 3. – С. 66-71.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100